



**MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGLARINI KASBGA
TAYYORLASHDA GENDER MADANIYATINING AHAMIYATI
(THE IMPORTANCE OF GENDER CULTURE IN PREPARING FUTURE
PRESCHOOL EDUCATION PEDAGOGUES)**

Mo'ydinova Xulkar Kamoldin qizi

muydinova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada gender madaniyatining maktabgacha ta'lim pedagoglarini tayyorlash jarayonidagi roli tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim muhitida gender tengligi va madaniyati bolalarga ta'lim berish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi muhokama qilinadi. Gender madaniyati asosida ta'lim berishning innovatsion usullari hamda jarayondagi yutuqlari va yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, gender madaniyatini pedagogik ta'lim dasturlariga integratsiya qilish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: gender madaniyati, maktabgacha ta'lim, pedagog tayyorlash, gender tengligi, ta'lim strategiyalari, gender stereotiplari, ta'lim integratsiyasi, gender tenglik.

Abstract: The article analyzes the role of gender culture in the process of training pedagogues of preschool education. Discusses how gender equality and culture influence the process of educating children in the modern educational environment. Innovative methods of education based on gender culture, as well as achievements and ways in the process are analyzed. Based on the results of the research, suggestions are given on the integration of gender culture into pedagogical education programs.

Key words: gender culture, preschool education, teacher training, gender equality, educational strategies, gender stereotypes, educational integration, gender equality.



Hozirgi kunda xalqaro tajribada oliy ta'lim tizimida genderga oid ta'lim berishning ikki xil yondoshuvi qo'llanilmoqda: "Gender tizimi" tushunchasi turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'lib, turli mualliflar tomonidan har xil izohlanadi. Gender tizimi jinslararo munosabatlar birligidir. Gender tizimi ommaviy va norasmiy sohalarning gender o'lchovini taqozo etgani, gender ierarxiyasi boshqa ijtimoiy ierarxiyalar tizimlari bilan solishtirish tufayli bu turdagi tahlilda gender texnologiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar rolini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Gender munosabatlarining hukmronlik ma'nolari ko'p jihatdan ana shunday yondashuv rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ldi. Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli yondashuvlar haqidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo'yicha tavsiflanadi. Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sohasi hamda yoshlar ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatda gender tengligini shakllantirishning ilk bosqichi hisoblanadi. Pedagoglar nafaqat bilim beruvchilar, balki gender stereotiplarini shakllantiruvchi yoki yo'qotuvchi omillardan biri bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada gender madaniyatining pedagoglarni kasbga tayyorlash jarayonidagi o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Gender madaniyati jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar, ularning rollari va stereotiplarini o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'limda gender madaniyatining ahamiyati bolalarning shaxsiyatini shakllantirishda, ularning o'z jinsi va boshqa jins vakillariga nisbatan munosabatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kasbga tayyorlashda gender madaniyatining ahamiyatini tushunish va bu borada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish muhimdir. Gender madaniyati deganda jamiyatda shakllangan gender stereotiplar, rollar va munosabatlar tizimi



tushuniladi. Gender madaniyati bolalarning o'zini anglashiga, ularning jinsi va boshqa jins vakillariga nisbatan munosabatiga ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'limda gender madaniyatiga e'tibor berish bolalarda gender tenglikni, o'zaro hurmatni va kamsitmaslikni shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida Gender ijtimoiylashtirishning muayyan asosi, mehnat taqsimoti va jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlar, ijtimoiy faoliyat turlari, ularning ijtimoiy mavqei orqali ifodalanadi. Ta'lim tizimida qabul qilingan Gender me'yorlar va mezonlar muayyan darajada talabalarning biologik jinsiga qarab ularning ruhiy sifatlari, qobiliyatlari, faoliyat turlari, egallaydigan kasblarini belgilashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar, oila, atrof-muhitdagilar birgalikda talabalar ongiga Gender me'yorlar, mezonlarni singdiradilar. Bu qarashlar talabalarda haqiqiy ayol, haqiqiy erkak qanday bo'lishi to'g'risida qarashlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Keyinchalik ushbu Gender me'yorlar talabalarda shakllantiriladigan faoliyat turlari orqali mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonida Gender ijtimoiylashtirish bu – talaba tomonidan o'zi yashaydigan jamiyat Gender madaniy tizimining o'zlashtirilishi jarayonidir. Ta'lim jarayonida Gender ijtimoiylashtirishning muhim belgilari sifatida talabalarni kasbga yo'naltirish, o'quv mehnatini to'g'ri taqsimlash, ularda Gender xoslikka asoslangan shaxsiy sifatlarni qaror toptirishdan iborat.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglari gender madaniyatining ahamiyatini tushunishlari va bu borada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Pedagoglar bolalarga gender stereotiplarni yengishga, o'z jinsi va boshqa jins vakillariga nisbatan hurmatni shakllantirishga yordam berishlari kerak. Shuningdek, pedagoglar o'zlarining gender stereotiplaridan xabardor bo'lishlari va ularni bolalarga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Gender Madaniyati va Uning Ta'limdagi O'rni

- Gender madaniyati tushunchasi va uning ta'lim tizimidagi o'rni.



- Gender tengligi va ta'lim muassasalarida stereotiplarga qarshi kurash.
- Xalqaro tajribalar: gender tengligi bo'yicha yetakchi mamlakatlarning maktabgacha ta'lim dasturlari.

Ta'lim tizimida qabul qilingan gender me'yorlar va mezonlar muayyan darajada o'quvchilarning biologik jinsiga qarab ularning ruhiy sifatlari, qobiliyatlari, faoliyat turlari, egallaydigan kasblarini belgilashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar, oila, maktab, atrof-muhitdagilar birgalikda o'quvchilar ongiga gender me'yorlar, mezonlarni singdiradilar. Bu qarashlar o'quvchilarda haqiqiy ayol, haqiqiy erkak qanday bo'lishi to'g'risida dastlabki tasavvurlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Keyinchalik ushbu gender me'yorlar o'quvchilarda shakllantiriladigan faoliyat turlari orqali mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirish bu –o'quvchi tomonidan o'zi yashaydigan jamiyat gender madaniy tizimining o'zlashtirilishi jarayonidir. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muhim belgilari sifatida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, o'quv mehnatini to'g'ri taqsimlash, ularda gender xoslikka asoslangan shaxsiy sifatlarni qaror toptirishdan iborat. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Gender madaniyat tushunchasi ilmiy muomalaga yaqinda kirib kelgan. Mazkur yondashuvning asosini rang-barang ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Gender madaniyat bizning tadqiqotimizda talabalarning madaniyatga oid bilimlari tizimi, ijtimoiy madaniy me'yorlar tashkil etadi. Bu o'z navbatida samarali Gender munosabatlar hamda shaxsning umumiy madaniyatini rivojlantirish imkonini beradigan mexanizmlarni tadbiq etish darajasida tahlil qilinadi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini gender madaniyatiga tayyorlash uchun quyidagi yo'llardan foydalanish mumkin:

- O'quv dasturlariga gender madaniyati mavzusini kiritish. O'quv dasturlarida gender madaniyatining mohiyati, ahamiyati va maktabgacha ta'limdagi roli haqida ma'lumotlar berilishi kerak.



- Seminar va treninglar tashkil etish. Seminar va treninglarda pedagoglar gender stereotiplar, gender tenglik va kamsitmaslik kabi mavzular bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishlari mumkin.

- Pedagoglarning o'z-o'zini tahlil qilishiga yordam berish. Pedagoglar o'zlarining gender stereotiplaridan xabardor bo'lishlari va ularni bolalarga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymasliklari uchun o'z-o'zini tahlil qilishlari kerak.

- Metodik materiallar bilan ta'minlash. Pedagoglarni gender madaniyati bo'yicha metodik materiallar bilan ta'minlash ularga bolalar bilan ishlashda yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim pedagoglarini tayyorlash jarayonida gender adaniyatining integratsiyasi

- Pedagogik ta'limda gender madaniyatini shakllantirish strategiyalari.
- O'quv dasturlarini gender tengligi mezonlariga moslashtirish.
- O'qituvchilar uchun maxsus trening va seminarlar.

Gender madaniyati maktabgacha ta'lim tizimiga to'g'ri integratsiya qilinsa, kelajak avlodning teng huquqli jamiyatda yashashiga zamin yaratiladi. Bu borada davlat va xalqaro tashkilotlarning qo'llab-quvvatlovi, maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish va pedagoglarni qayta tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Gender tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olmaslik, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qila olmaslik, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarning shakllantira olmaslikka sabab bo'ldi. Bular o'z navbatida, oila-jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishi, loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlarini osonlikcha qabul qilinishi kabi illatlarning keng miqyosda tarqalishiga zamin yaratdi. Aynan mamlakatdagi ta'lim va tarbiya tizimi milliy g'oya hamda mafkura g'oyalarini hayotga tatbiq etishda muhim omil hisoblanadi. Negaki, yigit va qizlar aynan oila va ta'lim muassasalarida to'plangan ijtimoiy-ma'naviy, ma'rifiy tajribaga boy milliy



tamoyillarni ilmiy hamda tarbiyaviy asosda ta'lim tizimida o'zlashtirib oladi. Aslida ham, ma'naviyatni ta'lim-tarbiyasiz insonga yetkazish, qaror toptirishning imkoni yo'q. Ta'lim va tarbiyani uyg'unlikda olib borish iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma'naviy yuksalishga olib keladi. Bo'lajak pedagoglarda Gender madaniyatni rivojlantirish asosida ta'limdagi yoki ijtimoiy muhitdagi kamsitishlarni ioldini olish imkoniyati kengayadi. Buning uchun esa avvalo bo'lajak pedagoglarda "Gender pedagogika va psixologiya" fanini o'tilishi orqali talabalarning Gender tarbiyasini rivojlantirish va shu asosida ularning Gender madaniyatini yuksaltirish mumkin bo'ladi. Pedagogik jarayonda kamsitish salbiy ijtimoiy hodisa bo'lib, juda murakkab mavzu hisoblanishiga alohida urg'u berilgan holda, mashug'lotlarni tashkil qilishlari talab etiladi. Gender steriotiplar ta'sirida kamsitishlarga uchrayotgan bolalar, qizlar va ayollar ko'pgina hollarda sukut saqlashga majburdirlar va bu zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan xotin-qizlar bilan ishlash, muloqotga kirishish alohida yondashuvni talab etadi. Kamsitilish ruhiy, ijtimoiy, psixologik, jismoniy salomatligiga zarar etkazibgina qolmaydi, balki uni ijtimoiy jihatdan tartibga solinmagan shaxs sifatida jiddiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib keladi. Shu ma'noda bo'ladak pedagoglarda Gender madaniyatni rivojlantirish asosida Gender tafovutlar asosida ta'limni tashkil qilishga e'tiborq aratish, ularda Gender tarbiya bilan bog'liq muammolarga o'z munosabatini shakllantirish ummkin bo'ladi.

Tadqiqot metodikasi

- So'rovnomalar, intervyular va amaliy kuzatuvlar orqali gender madaniyatining o'qituvchilarga ta'sirini tahlil qilish.
- Pedagoglarning gender madaniyatiga oid bilim darajasini aniqlash.

Gender madaniyati asosida ta'lim berish jarayonida quyidagi pedagogik metodlardan foydalanish mumkin:

- **Interfaol metodlar** – munozaralar, rolli o'yinlar va gender mavzusidagi seminarlar orqali pedagoglarning tushunchalarini kengaytirish.



- **Ilmiy-tahliliy yondashuv** – pedagoglarni gender masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishga rag'batlantirish.
- **Amaliy mashg'ulotlar** – maktabgacha ta'lim muassasalarida gender madaniyatini shakllantirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari va muhokama

- Gender madaniyatining pedagoglar faoliyatiga ta'siri bo'yicha aniq dalillar.
- Maktabgacha ta'limda gender neytral metodologiyalar qo'llanilishining samaradorligi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytish mumkinki, ayollar va erkaklarning qobiliyatlari va ta'lim imtiyozlari to'g'risidagi gender stereotiplarining mavjudligi, shuningdek, tadqiqot natijalarini ommalashtirishga ta'sir qiladi. Ayollar va erkaklar uchun yangi imkoniyatlar, ta'limdagi gender tenglik tamoyillari aks ettirish refleksiv o'yin va erkinlik kenglik sohasida, bu yerda ular mushtra – burg'ulash, tajovuzkorlik va "qo'lga o'rgatish" boshqa narsalardan bosh tortib, o'rniga muloyimlik, nafislik va xurmat amalga oshirilishi mumkin. Talaba va o'qituvchi o'zgarishlarni birgalikda va faol ravishda rejalashtiradigan, yutuqlarni nazorat qiladigan va erishilganlarni sifatini baholaydigan, tushunmovchiliklarni ochiq muhokama qiladigan va ularni hal qilish yo'llarini topadigan sheriklar sifatida ishlaydi. Shu sababli, o'quv jarayonini tashkil etish o'zi ochiqlik va moslashuvchanlikni, an'anaviy tajribalar bilan bir qatorda eksperimentlar va alternativ yechimlarni ham o'z ichiga oladi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarida gender madaniyatini shakllantirish – ularning kelajakda ta'lim jarayonida gender tenglik tamoyillarini to'g'ri qo'llashiga yordam beradi. Buning uchun pedagogik ta'lim jarayoniga gender madaniyati bo'yicha maxsus kurslarni kiritish va interfaol metodlardan keng foydalanish zarur. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kasbga tayyorlashda gender madaniyatining



ahamiyati katta. Pedagoglar gender madaniyatining mohiyatini tushunishlari va bu borada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Bu bolalarda gender tenglikni, o'zaro hurmatni va kamsitmaslikni shakllantirishga yordam beradi.

- Gender madaniyatining pedagogik ta'limda muhim ekanligi haqida umumiy xulosalar.
- O'quv dasturlariga gender madaniyatini integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar.
- O'qituvchilar malakasini oshirish uchun maxsus kurslar va treninglarni joriy etish zarurati.
- Maktabgacha ta'lim muassasalarida gender madaniyatiga e'tibor berish va bu borada pedagoglar bilan ishlashni kuchaytirish lozim.
- Pedagoglarni gender madaniyati bo'yicha muntazam ravishda bilim va ko'nikmalarini oshirib borish kerak.
- Maktabgacha ta'limda gender tenglikni ta'minlash uchun barcha ishtirokchilarning, jumladan, pedagoglar, ota-onalar va bolalarning hamkorligi zarur.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325 sonli Farmoni.
<http://lex.uz/docs/3546742>
2. Ubaydullayeva R.A. Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006.
3. O'zbekistonda Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning tashkiliy- huquqiy asoslarini takomillashtirish. Toshkent 2008 y
4. Bern S. Gender psixologiyasi. Sankt-Peterburg: Prime-Evroznak, 2002.
5. Bojovich L. I. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. Moskva: Ta'lim, 2000.



6. Narbaeva T. O‘zbekistonda xotin-qizlarini ijtimoiy himoya qilishning innovatsion modeli. Monografiya- T., 2020.

7. Egamberdieva T.A., Siddiqov I.B. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlar ishtirokining zamonaviy omillari. O‘quv uslubiy qo‘llanma- F., 2021

8. Gender tenglik bo‘yicha butunjahon statistikasi.

Elektron resurslar

1. W.W.W.ziyonet.uz
2. W.W.W.pedagog.uz
3. W.W.W.edu.uz